

# **LOKAL KUCHSIZ SEPARABEL FAZOLARNING TOPOLOGIK XOSSALARI**

Mamatov Jahongir Xamraqulovich

Jizzax politexnika instituti “Oliy matematika” kafedrasи o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lokal kuchsiz separabel fazosining ta’rifi, hamda uning turli topologik xossalari o‘rganilib, ularga doir muhim teoremlar isbotlangan va salmoqli natijalar olingan. Xususan, lokal kuchsiz separabel fazolarning ixtiyoriy ochiq qism to’plami va kanonik yopiq qism to’plami lokal kuchsiz separabel fazo bo’lishlik shartlari topilib isbotlangan. Shu bilan lokal kuchsiz separabel fazosiga 2-simmetrik darajali funktor  $SP^2$  ta’sir qilganda ham lokal kuchsiz separabel fazo bo’lishlik shartlari topilgan va isbotlangan.

**Kalit so’zlar:** topologik fazolar, separabel fazolar, lokal kuchsiz separabel fazolar, topologik xossa, kuchsiz zichlik, ochiq to’plam, Tixonov ko’paytmasi, Hattori fazosi, Zorgenfrey chizig’i;

## **ТОПОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЛОКАЛЬНО СЛАБО СЕПАРАБЕЛЬНЫХ ПРОСТРАНСТВ**

Маматов Джахангир Хамракулович

Преподаватель кафедры «Высшая математика»

Джизакского политехнического института

**Аннотация:** В статье изучаются определение локально слабого сепарабельного пространства и его топологические свойства, доказываются связанные с ними важные теоремы и получены важные результаты. В частности, найдены и доказаны условия, при которых произвольное открытое частичное множество локально слабо сепарабельных пространств и каноническое замкнутое частичное множество являются локально слабо сепарабельным пространством. Таким образом, найдены и доказаны условия расщепления локально слабо сепарабельного пространства, даже когда 2-й симметричный функтор

действует на локально слабо сепарабельное пространство.

**Ключевые слова:** топологические пространства, сепарабельные пространства, локально слабо сепарабельные пространства, топологические свойства, слабая плотность, открытое множество, тихоновское умножение, пространство Хаттори, линия Зоргенфрея;

## Topological properties of locally weakly separable spaces

Mamatov Jahangir Khamrakulovich

Teacher of the "Higher Mathematics" department of

Jizzakh Polytechnic Institute

**Abstract:** In this article, the definition of locally weakly separable space and its topological properties are studied, important theorems related to them are proved and important results are obtained. In particular, the conditions for an arbitrary open partial set of locally weakly separable spaces and a canonical closed partial set to be a locally weakly separable space are found and proved. In this way, the conditions for splitting the locally weakly separable space even when the 2nd symmetric functor acts on the locally weakly separable space have been found and proved.

**Keywords:** topological spaces, separable spaces, locally weakly separable spaces, topological property, weak density, open set, Tikhonov multiplication, Hattori space, Zorgenfrey line;

$X$  топологик fazо  $x \in X$  nuqtada lokal kuchsiz separabel deyiladi, agar  $\mathbb{N}$  eng kichik kardinal son bo'lsa, bunda  $x$  ning  $X$  топологик fazoda kuchsiz separabelatrofga ega bo'ladi [2].  $x$  nuqtada lokal kuchsiz zichlik  $lwd(x)$  orqali ifodalanadi.  $X$  fazoning lokal kuchsiz zichligi  $x \in X$  uchun barcha  $lwd(x)$  kardinal sonlarning supremumi va  $lwd(X) = \sup \{lwd(x) : x \in X\}$  orqali ifodalanadi. Agar  $lwd(X) = \aleph_0$  bo'lsa,  $X$  топологик fazо lokal kuchsiz

separabel fazo deyiladi. Har qanday topologik fazo uchun  $\text{wd}(X) \leq \text{wd}(X)$  ekanligi ma'lum.

$X$  ning almashtirishlar guruhi – barcha almashtirishlar guruhidir (ya'ni,  $X \rightarrow X$  bitta-bitta va ustiga akslantirish).  $X$  to‘plamning almashtirishlar guruhi  $S(X)$  orqali ifodalanadi. Agar  $X = \{1, 2, 3, \dots, n\}$  bo‘lsa,  $S(X)$  ham  $S_n$  orqali ifodalanadi.

$X^n$ - $X$  kompakt fazoning  $n$ -darajasi bo‘lsin. Barcha almashtirishlarning o‘rin almashish guruhi  $S_n$ , koordinatalarni almashtirish sifatida  $n$ -chi darajali  $X^n$  ga ta'sir qiladi. Ushbu harakatning barcha orbitalari to‘plamini  $SP^n X$  orqali ifodalanadigan faktor topologiyasi bilan belgilaymiz. Shunday qilib,  $SP^n X$  fazoning nuqtalari  $X^n$ -ko‘paytmaning chekli qism to‘plamlaridir. Shunday qilib, ikkita  $(x_1, x_2, \dots, x_n), (y_1, y_2, \dots, y_n) \in X^n$  nuqtalar ekvivalent deb hisoblanadi, agar  $\sigma \in S_n$  almashtirish  $y_i = x_{\sigma(i)}$  bo‘lsa.  $SP^n X$  fazo  $X$  fazoning  $n$ -almashtirish darajasi deyiladi [3].

**1. Tasdiq.**  $X$  – lokal kuchsiz separabel fazo va bo‘lsin  $f : X \rightarrow Y$  – uzluksiz ustiga akslantirish bo‘lsin. U holda  $Y$  ham lokal kuchsiz separabel fazo bo‘ladi.

**Isbot.**  $f$  – ustiga akslantirish bo‘lganligi uchun har qanday  $y \in Y$  nuqta uchun  $f^{-1}(y)$  proobraz (qayta akslantirish) –  $X$  da bo‘shbo‘limgan qism to‘plamdir. Har bir  $x \in f^{-1}(y)$  nuqta uchun shunday  $O_x$  atrof mavjudki, bu erda  $O_x$  – kuchsiz separabel.  $f$  – ochiq akslantirish bo‘lganligi uchun  $f(O_x)$  ham  $Y$  da ynuqtani o‘zichiga olgan ochiqto‘plambo‘ladi.  $f$  – uzluksiz akslantirish bo‘lganligi sababli  $f(O_x)$  to‘plam  $Y$  da kuchsiz separabeldir. 1-Tasdiq isbotlandi.

**2. Tasdiq.**  $X$  – lokal separabel va  $G - X$  ning qandaydir qism to‘plami bo‘lsin. Agar  $G$  quyidagi shartlarning xech bo‘lmasganda bittasini qanoatlantirsa lokal kuchsiz separabel bo‘ladi, ya’ni:

A)  $G - X$  da ochiq b)  $G - X$  da hamma joyda zich v)  $G - X$  da kanonik yopiq.

**Izbot.** A)  $G - X$  ning bo‘sh bo‘lmasgan ochiq qism to‘plami bo‘lsin. Ta’rifga ko‘ra har qanday  $x \in G$  nuqta uchun  $O_x \subset X$  atrof mavjud bulib, bu  $O_x$  atrof kuchsiz separabeldir. U holda  $O_x \subset G = O_x - x$  nuqtani o‘zichiga olgan  $G$  dagi bo‘sh bo‘lmasgan ochiq to‘plamdir. Kuchsiz separabel fazoning har qanday ochiq qism to‘plami kuchsiz separabel bo‘lganligi uchun  $O_x - x$  ham kuchsiz separabeldir.

B)  $M \subset X$  fazoning hamma joyda zich qism to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy  $y \in M$  nuqtani qaraymiz.  $X$  lokal kuchsiz separabel bo‘lganligi uchun  $y$  nuqtaning shunday  $O_y \subset X$  atrofi mavjud bulib, bunda  $O_y$  ham kuchsiz separabel.  $O_y \subset M = O_y - y$  ni tekshiramiz. U holda  $O_y - y$  ning bo‘sh bo‘lmasgan ochiq qism to‘plami. Bundan tashqari  $O_y - y$  va  $O_y$  qism to‘plamlar  $O_y$  atrofda hamma joyda zich. Kuchsiz separabel fazoning hamma joyda zich bo‘lgan har qanday qism to‘plami ham kuchsiz separabel bo‘lganligi uchun  $O_y - y$  ham kuchsiz separabeldir.

V –  $X$  fazoning kanonik yopiq qism to‘plami bo‘lsin. U holda shunday  $U$  ochiq to‘plam mavjudki,  $G = [U]$  bo‘ladi. A) punkt nuqtai buyicha qaralganda  $U$  – lokal kuchsiz separabel. Ixtiyoriy  $z \in G$  nuqta va uning kuchsiz separabel bo‘lgan  $O_z \subset X$  atrofini qaraylik. U holda  $O_z = O_z - z$  –  $G$  to‘plamning bo‘sh bo‘lmasgan ochiq qism to‘plami bo‘ladi.  $V = O_z \subset U$  ni tekshirsak, modomiki kuchsiz separabel fazoning barcha ochiq qism to‘plamlari kuchsiz separabel bo‘lar ekan, u holda  $V$  ham kuchsiz separabeldir. Boshqacha qilib aytganda

$V$  to‘plam $O$ ‘ $z$  da hamma joyda zichdir. 1-tasdiqga ko‘ra  $z$  nuqtaning  $O$ ‘ $z$  atrofi kuchsiz separabel bo‘ladi. 2-Tasdiq isbotlandi.

**3. Tasdiq.** Har qanday  $\alpha \in A$  nuqta uchun  $X_\alpha$ - lokal kuchsiz separabel fazo bo‘lsin. U holda  $X = \bigoplus \{X_\alpha : \alpha \in A\}$  ham lokal kuchsiz separabel fazo bo‘ladi.

**Isbot.**  $x \hat{\in} X$  - ixtiyoriy nuqta bo‘lsin. U holda shunday  $a \hat{\in} A$  nuqta mavjudki  $x_a \hat{\in} X_a$  bo‘lsin.  $X_a$  fazo lokal kuchsiz separabel bo‘lganligi uchun  $x_a$  nuqtaning shunday  $O_{x_a} \hat{\in} X_a$  atrofi mavjud bo‘ladiki, bu  $O_{x_a}$  atrof ham kuchsiz separabel bo‘ladi.  $X_a$  fazo  $X$  fazoda ochiq-yopiq bo‘lganligi uchun  $O_{x_a}$  atrof ham  $X$  fazoda ochiq va kuchsiz separabeldir. 3-Tasdiq isbotlandi.

**4. Tasdiq.**  $X_i \hat{\in} X$ ,  $i=1,2,\dots,n$  va har bir  $X_i$  lokal kuchsiz separabel bo‘lsin. U holda  $\bigcup_{i=1}^n X_i$  lokal kuchsiz separabel bo‘ladi.

**Isbot.**  $x \hat{\in} \bigcup_{i=1}^n X_i$  – ixtiyoriy nuqta bo‘lsin. U holda  $x \hat{\in} X_i$ ,  $i=1,2,\dots,n$  bo‘ladi.  $X_i$  fazo lokal kuchsiz separabel bo‘lganligi uchun shunday  $O_{x_i} \hat{\in} X_i$  atrof mavjudki, har bir  $i=1,2,\dots,n$  uchun  $O_{x_i}$  atrof kuchsiz separabel bo‘ladi.  $\bigcup_{i=1}^n O_{x_i} = O_x$  ni qaraymiz.  $O_{x_i}$ ,  $i=1,2,\dots,n$  da  $O_x$  ochiq to‘plam bo‘lganligi uchun  $O_x$  to‘plam  $\bigcup_{i=1}^n X_i$  da kuchsiz separabel bo‘ladi. 4-Tasdiq isbotlandi.

### Adabiyotlar ro’yxati:

1. R.B. Beshimov: *Weakly separable spaces and their separable compactifications*, Doklady Uzbek. Akad. Nauk 1 (1997), 15–18 (in Russian).
2. R. Engelking: *General Topology*, Warszawa, 1977.
3. Mukhamadiev F., Mamatov J. “A NOTE ON LOCALLY WEAKLY SEPARABLE SPACES”. Matematik fizika va matematik modellashtirishning zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy

konferensiya materiallari. 3-4 dekabr. 2021 yil. Qarshi Davlat universiteti,

2021 yil. 372-373 bb.

4. Mamatov J. KUCHSIZ SEPARABEL FAZOLARNING TOPOLOGIK XOSSALARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 7-14.